

COURSE: HISTORY OF THE EASTERN AND WESTERN PHILOSOPHY

Lecture 13: Philosophical basic psychoanalysis of man and Freudianism

Lecturer: Dr. Gulnoz Ruzmatova



MAVZU: FREYDIZMDA INSON RUHIYATI TALQININING FALSAFIY ASOSLARI

REJA:

Ruhiyat tahlili oqimning vujudga kelishi. Zigmund Freydning ijtimoiy-falsafiy qarashlari
Karl Yungning inson haqidagi qarashlari va Zigmund Freyddan farqi
Erix Frommning ijtimoiy-falsafiy qarashlari
Freydizm va falsafiy antropologiyada barkamol avlodni shakllantirishdagi ahamiyati

**KARL GUSTAV
YUNG**

1975 - 1961

ZIGMUND FREYD

1856 - 1939

ERIX FROMM

1900 - 1980

Tayanch soʻz va iboralar:

Ongsizlik, ruhiyat tahlili, jamoaviy ongsizlik, ruhiy energiya, onglilik, arxetip, freydizm, eros, tanatos, “U”, libido.

ONG

Subyektiv reallik bo‘lib, inson tomonidan, uning ruhiyati va miyasi orqali tashqi dunyoni aks ettirishi, insonning ma’naviy dunyosi, dunyoda mavjudligini, borligini his etishi, tashqi dunyoga bo‘lgan munosabati.

ONGSIZLIK

Ongsizlik har bir shaxs ruhiy faoliyatining ajralmas zaruriy sohasidir; har qanday ruhiy harakat avval ongsiz ravishda boshlanadi, keyinchalik anglanadi; biroq o'tib bo'lmas to'siqqa uchrasa, ongsizlik darajasida qolib ketishi ham mumkin

ONG OLDI

“Ong oldi” tushunchasi (ruhiyat tahlilining kategoriyasi)dan foydalanadi. Uningcha, “ong oldi” tushunchasi avval ongli ravishda qabul qilingan, vaqt o‘tib xotiradan ko‘tarilgan bo‘lsa ham, qandaydir darajada iz qoldirgan ruhiy xolatdir.

RUHIYAT TAHLILI

- • Birinchidan, shaxsning keng ko'lamli nazariyasini,
- • ikkinchidan, o'zining shifokorlik tajribasida o'zini o'zi tahlil qilishga asoslangan klinik kuzatishlarning keng ko'lamli tizimini,
- • uchinchidan, asabiy (nevrotik) buzilishlarni davolashning o'ziga xos usulini,
- • to'rtinchidan, boshqa hech qanday usul bilan o'rganib bo'lmaydigan ruhiy jarayonlarni tanqid qilish uslubidir.

- Zigmund Freyd (1856-1939) yoillarda yashab ijod qilgan Inson psioxikasi tuzilishi v a rivojlanishi organuvchi oqim FREYDIZM deb atalgan.
- Bu oqim XIX- asrning oxirlarida shakllandi Nevroz kasali mohiyatini FERYD yangicha talqin qilishga urindi
- Keyinchalik Freyd va uning shogirlari ijtimoiy jarayonlarni tushintirishda psixoanaliz talimotini qo`llaydilar
- O`z dunyo qarashini shakllanishida Freyd murakkab yo`lni bosib o`tti

Freyd inson psixikasida bir biridan isbiy mustaqil bo`lgan tuzilmani ajratti

Ong osti - u

Ongli men

Oliy – ego

Freyd fikricha bu uch tuzilma o`rtasidagi NEVROZ kasalligiga sababchdir

INSON RUHIYATI TUZILMASI

Ongsizlik
“pesh
ayvon”

Anglanmayd
i va
sezilmaydi

Ong oldi
“dahliz”

Sezish
imkoniyatiga
ega va
anglanadi

Ong
“mehmonxona
”

Sezilgan va
anglangan

ZIGMUND FREYD: RUHIYAT TUZILMASI

- «U» («ID») – ongsiz intilishlarning chuqur qatlami (lazzatlanish tamoyili)
- «Men» («EGO») – ong sohasi, ong va tashqi dunyo o‘rtasidagi vositachi (voqelik tamoyili)
- «Oliy Men» (SUPER-EGO) – ichki shaxsiy vijdon, instansiya, jamiyat qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi, o‘ziga xos axloqiy senzura

- Zigmund Freyd asabiy kasallarning davolashning yangi uslubini taklif qiladi , natijada bu uslub psixoanaliz deb nomlanadi. Bu uslub asosida nevrozlarning hirsiy etimologiyasi haqidagi tasavvuri yotadi
- Inson psixikasining ongsizlik qatlami ochilmagan material sifatida talqin qilanadi inson ongida siqib chiqarilgan va anglanmagan fikrlarni onglilik sohasiga o`tkazish bu tadqiqot usullari orqali tushllarni talqin qilish kasallik sabablarni aniqlash , nutqiy o`xshatishlarni manosiini ochish , hatto harakatlarni aniqlash bu uslubnig asosiy xizmatidir

Bir so`z bilan aytganda, Freyd inson hayotining kam o`rganilgan sohasiga o`z e'tiborini qaratadi

Freydnining fikricha , inson tabiatida ikki kuch hukmrondir

Birinchisi barcha narsalarning vayron etish tanatos (Freyd o`z ijodiga yangi tushuncha <<Tanatos>> (Azroil-buzgunchi o`lim xudosini kiritgan) ruhi



Birinchi kuch inson psixikasida nikrofiliya jaroyoniga olib keladi. Nikrofillarga sado – mazohizm hamda barcha o`lik shakllarga qiziqish , o`limni kuylash , hayotga va hayotiy jo`shqinlikka nafrat bilan qarash xosdir

Ikkinchisi hayotga hursandchilikka intilish kuchidir



Ikkinchi kuch inson psixikasida ko`proq rivojlangan bo`lsa ularga gimnafil hayotni sevuvchilar deb atashadi. Ularga ahyotiy jo`shqinlik optimizm xosdir

Sof holatda hayotda bu ikkilik kam uchaydi ular asosan aralshgan holda jamiyatda hayot kechiradi . Bunday psixik xususiyatlar ishtimoy jarayonlar katta tasir ko`rsatishi mumkin

Psixonaliz dini nevroz sifatida talqin qiladi Ana shu fikrlarni Freydning <<Totem va Tabu>> nomli asarida uchratishimiz mumkin Freyd nevroz kasallarning xaddi xarakatlari bilan diniy marosimlardagi xarakatlarning oxshashligini aytib o`radi. U nevrozni shaxsning dindorligi deb xisoblasa dini esa umumiy nevroz xolati deb xisoblaydi diniy marosimlarga va aqidalarga , Freyd fikricha juda berilib ketish nevroz holatidagi qo`rquvni eslatadi.

Lekin qo`rquv dinda ongliy ravishda anglangan bu va xudoning qahri oldidagi qo`rquvdir . Nevroz xolatidagi qo`rquv esa ong ostida bo`lib anglanmaydi. Shu bilan birga diniy marosimdagi harakat bilan nevroz holatidagi xarakatning o`xshashligi bilan birga farq ham bordir.

Freyd diniy afsonalardagi voqealarning tanqid qilib ularni nevroz holatodagi manikyal g`oyalarga berilib ketishga o`xshatadi bu asabi kasallar – manikyal holatlardan diniy afsonalarga ishonishning katta farqi bor. Din asrlar davomida insonlarni mushkul ahvollarga tushib qolganlarida yupatib kelgan. Keyinchalik umidsizlik holatiga tushmaslikka yordam bergan.

Insoniyat dunyo qarashi rivoji davri 3 bosqichda o`tadi :
1.Animistik 2.Diniy 3. Ilmiy .

- Freydning fikricha din abadiy emas . U qachonlardir paydo bo`lgan kelajakda asta sekin yuqolib ketadi. Lekin Freydning qarashlarida ziddiyat bor . U animizm magiya va totemizm ni diniy qarashlarga qarshi qo`yadi . Vaholanki bu qarshlarning o`zida g`ayritabiiy kuchlarga ishonch yotadi . Bu ziddiyatning Freydning diniy qarashlarga notog`ri izoh berilshida edi. Freyd uchun din faqat inson qiyofasida o`xshash yoki xudoga ishonch dir. Aslida esa diniy qarashlar qanday qiyofaga ega bo`lmasin bu g`ayritabiiy ilohiy kuchlarga ishonchdir.

Animizm sdavrida afsunlar orqali insonlar ni o`z maqsadlariga erisha olishiga bo`lgan ishonchni Freyd nevroz kasallarining o`z fikrlar olamini real ekanligiga bo`lgan ishonchi deb hisoblaydi lekin Freyd bu masalada ibtidoiy dav odamlarini afsunlarga , magiya ga bo`lgan ishonchi bilan birga ularni amaliy faoliyatlarini inobatga olmaydi . Ibtidoiy inson faqat afsungarlik orqali emas balki o`z mehnati o`rqli tabiatga moslashib uni o`1zgartirib madaniyatni barbo etadi

Totemizm ning kelib chiqishi , Freyd fikricha 3ta gipoteza ga asoslaandi

1. Bu – ibtidoiy qabila bo`lib yashah bu qabila oqsoqolining qo`pol , cheksiz hukmiga bo`y sunish haqidagi gipotezasi

2. Darvin fikrini rivojlantirgan Atkinson gipotezasi bo`yicha oqsoqol hukmiga qarshi chiqqan o`gillar o`z otasini o`ldiradilar va yeb o`yishadi

3. Robertson Smitning gipotezasi bo`yicha g`laba qozongan o`gilar oqsoqol otasi o`rnatgan hukmronlikdan voz kechishadi o`zaro sulh tuzib qabilada ekzo jamiyatni o`rnatishadi yani ayollar humronligiga o`tishadi

- Nufuzli olimlarning bu gipotezalardan voz kechishiga qaramay Freyd ularga asoslandi . Bu qarashlar uning inson psixikasining g`oyalarning rivojlantirishiga yaxshi xizmat qiladi

- Freyd dinni inkor qilishiga qaramay o`zining psixoanaliz g`oyalarini asoslash uchun yuzaki isbotlanmagan gipotezalardan foydalanadi. Ularni xam o`zining <<libido>> ta`limoti orqali taxlil qiladi

Animizm davrida afsunlar orqali insonlar ni o`z maqsadlariga erisha olishiga bo`lgan ishonchni Freyd nevroz kasallarining o`z fikrlar olamini real ekanligiga bo`lgan ishonchi deb hisoblaydi, lekin Freyd bu masalada ibtidoiy davr odamlarini afsunlarga , magiya ga bo`lgan ishonchi bilan birga ularni amaliy faoliyatlarini inobatga olmaydi . Ibtidoiy inson faqat afsungarlik orqali emas balki o`z mehnati o`rqli tabiatga moslashib uni o`zgartirib madaniyatni barbo etadi

Freyd <<Ongsizlik ruxiyati>> nomli asarida onglilik va ongsizlik xolatlarini taxlil qilib beradi. Uning fikricha bu xolatlarni bir biridan ajratib bo`lmaydi, chunki ongsizlikning ba`zi bir elementlari ongliy holatda uchrab turadi.

Ratsionalizm ta`limoti nomoyondalari ongni inikos sifatida talqin qilsalar Freyd birinchilardan bo`lib ongni psixik jarayon sifatida talqin qiladi.

Onglilik oldi – bu to`liq ongsizlik emas , ya`ni u rivojlanib onglilikka o`tishi mumkin. Va nixoyat ongsizlik- bu surib chiqarilgan harakatsiz ongsizlikdir. Ongsizlik o`z o`zidan onglilikka o`tmaydi.

U quyidagi darajalardan o`tadi:

<<onglilik>>, <<ongoldi>> va <<ongsizlik>> .

Freyd <<Men>> ni shunday tariflaydi.: <<Men... biz biron bir shaxsning ruxiy jarayonlarga tuzilmasini tasavvur qilamiz va uni <<Men>>ini belgilaymiz. Ana shu <<MEN>> ong bilan bog`liqdir, u tashqi olamga qarab xarakterga intilish xissini nazorat qiladi.>> <<Bu jonning shunday markaziki ,xar bir xususiy xarakterlarni boshqaradi, kechasi tushga aylanadi va uni ham nazorat qiladi. Ana shu <<Men>>ga ongdan siqib chiqarish ham bog`liq>>

Freyd fikricha <<Men>> aqlni va tafakkurlashni tashkil etsa <<u>> esa xirsni nomoyon etadi. <<Men >> va <<u>> ni obrozli tariflab Freyd ularni otga va chavandozga qiyoslaydi. Ot-bu egarlanmagan tuygular xirslik sohasidir. U chavandoz nazoratidan chiqib ketishga talpinadi. <<Men >> - bu chavandozdir, u butun kuchini ishga solib, otni o`ziga bo`ysintirishga harakat qiladi. Lekin ot shunday yovvoyiki chavandoz uni bazida egarlay olmaydi.

**КАРЛ ГУСТАВ
ЮНГ
1875-1961**

YUNG “TAHLILIIY PSIXOLOGIYA”DA KO’NIKMA TUSHUNCHASINI TAHLIL QILIB, QUYIDAGI UMUMNAZARIY MASALALARNI O’RTAGA TASHLAYDI, MAZKUR TUSHUNCHA ORQALI OLIM ONG BILAN ONGSIZLIKNING O’ZARO TA’SIRINI, INSON XULQI OMILLARINI, SHAXSNING TURLI RUHIY HOLATLARINI, RUHIYAT DARAJALARINI TUSHUNTIRADI; “KO’NIKMA” TUSHUNCHASI ORQALI YUNG INSON RUHIYATINI BELGILOVCHI CHEGARALARNI KENGAYTIRISHGA HARAKAT QILADI. YUNG INSON HARAKATINING ICHKI YO’NALISHINI INKOR ETMAGAN HOLDA TASHQI VAZIYATGA HAM DIQQATINI QARATADI;

**КАРЛ ГУСТАВ
ЮНГ
1875-1961**

MUAYYAN HARAKATLARNI AMALGA OSHIRISHDA SHAXSNING UMUMIY KO'NIKMASIGA AYNAN OBYEKTIV OMIL KO'PROQ TA'SIR QILADI. O'ZGARISHLARGA MOYIL BO'LGAN OBYEKTIV OMILGA NISBATAN, DOIM O'Z-O'ZIGA MONAND BO'LGAN SUBYEKTIV OMIL TASHQI SUBYEKTLARGA NISBATAN KO'PROQ ASOSLARGA EGADIR; UMUMAN UNING QARASHLARI BUTUN JAHON FALSAFASINING RUHIY XOLATLAR HAQIDAGI G'OYALARINI UMUMIYLASHTIRISH MUMKINLIGI HAQIDAGI FIKRNI ASOSLASHGA QARATILGAN. ZERO, UNDA INSONNING RUHIY OLAMI BILAN BORLIQNING RUHIY OLAMI YAGONALIGI NAMOYON ETILGAN;

**КАРЛ ГУСТАВ
ЮНГ
1875-1961**

K.YUNG O‘ZINING QADIMGI SHARQ DINLARI, FALSAFASI VA MADANIYATI MAZMUN-MOHIYATINI O‘RGANISH, TAHLIL QILISH TAJRIBASIGA SUYANGAN HOLDA, SHARQ QADRIYATLARIGA ICHKARIDAN KIRIB BORISHNI; ULARNI ONGSIZLIKDAN QIDIRISH KERAKLIGINI AYTADI. SHARQONA INSON BOTINIY INTILISHI (INTROVERTLIGI) – BU O‘Z-O‘ZINI IN‘IKOS QILISH EMAS, BALKI SHARQ INSONI UCHUN ONGNI “MEN”SIZ TASAVVURIDAN IBORAT;

SHU BILAN BIRGA YUNG IKKI MADANIYATNING HAM BIR YOQLAMALIGINI TA’KIDLAYDI. “ULARDAN BIRI ONGLILIK OLAMIGA YETARLI BAHO BERMAYDI, BOSHQASI – YAGONA RUH - YAKDILLIK DUNYOSINI INOBATGA OLMAYDI.

**КАРЛ ГУСТАВ
ЮНГ
1875-1961**

K.Yungning fikricha, inson kuchi ham Braxmandan kelib chiqadi. Harakatchan ijodiy libido kuchini Braxmanning cheksiz va son-sanoqsiz shakllari tashkil etadi. Koinotdagi va insondagi hayotiy kuch ng fikricha, energiyadir. Bu kuchda quyi va yuqori, issiq va sovuq kabi ziddiyatlar bo'lganidek, libidoda ham ziddiyatlar mavjud. Libidodagi ziddiyatlarni tahlil qilib, Yung bu xol Braxmanda ham mavjudligini ko'rsatadi. Borliqning asoschisi bo'lgan Dunyoviy Ong o'zining ikki qarama-qarshi boshlan³ichga ajratadi, bular manas - aql va "vac" - so'zdir.

Erix Fromm inson tabiati haqidagi qarashlarini bayon qilar ekan, inson mohiyatida biologik asosning bo'rttirilishi o'z-o'zidan inson va insoniy madaniyat rivojida ijtimoiy omillarga yetarli darajada baho berolmasligiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida ijtimoiy-ruhiy va siyosiy muammolarni hal qilishda zaruriy nazariy-uslubiy asosning yetarli emasligini namoyon qiladi. Inson nisbatan o'zgaruvchandir. U har doim ijtimoiy tuzum hamda o'zining shaxsiy ehtiyoji o'rtasidagi mutanosiblikning buzilishiga darrov e'tibor qiladi. Ana shu mutanosiblikni bartaraf etish uchun intilish inson tarixiy rivoji negizini tashkil etadi;

inson deyarli hamma madaniyat turlariga moslashuvchan mavjudot bo'lsa ham, agar ular o'zining tabiatiga zid kelib qolganda, unda ichki ma'naviy-ruhiy va ehtirosli to'qnashuvlar boshlanadi. Bunda inson o'z tabiatini o'zgartira olmagan holda, o'z hayot tarzini o'zgartirishga majbur bo'ladi;

ERIX FROMM

1900-1980

ERIX FROMM

1900-1980

Erix Fromm inson tabiatining asosiy-manbaviy tamoyilini aniqlash va bu orqali madaniyat va siyosat haqidagi ta'limotni rivojlantirishga harakat qilib, inson tabiatining ikki fundamental tamoyilini ega bo'lish va mavjud bo'lish (freydcha Tanatos va Eros)da ko'radi. Uning ta'limoticha, ana shu tamoyillarning har biri o'zining chuqur biologik asosiga ega. Bu o'zini saqlash instinktida namoyon bo'ladi, abadiy hayotga intiladi. Mavjudlik esa, o'zining ibtidosini hamkorlik instinktidan, yakkalanib qolish qo'rquvidan oladi. Bu ibtidolar insonda tabiatan bir-birini to'ldiradi hamda bir-biriga zid keladi. Shu tarzda Fromm insonning ichki mohiyati ibtidolarini "mavjudlik" va "ega bo'lishlik" kategoriyalari orqali yaratishga harakat qiladi. Olimning ta'kidlashicha, ular insonning falsafiy qarash timsoli bilan madaniy rivojini bog'lovchi zanjir sifatida ham namoyon bo'ladi;

ERIX FROMM
1900-1980

olim qarashlarida “din” tushunchasi nafaqat an’anaviy diniy e’tiqodni qamrab oladi, balki falsafiy tizimlarni, axloqiy va ijtimoiy-siyosiy ma’lumotlarni ham o‘z ichiga oladi. Turli ma’lumotlar tizimlariga tatbiq qilingan bunday “din” tushunchasi u yoki bu darajada inson mavjudligi muammolariga ham tegishlidir. Shu nuqtai nazardan E.Fromm dinni “hukmdor din” va “insonparvar” dinga ajratadi; “hukmdor din” – bu begonalashgan inson dinidir. “Insonparvar din” – bu tafakkur mulohaza yuritadigan tuzilma emas, yopiq muassasaning mahsuli emas. Bunday din ijtimoiy va diniy fikrlar rivoji tarixida o‘z negiziga ega bo‘lib, o‘zida adolat, erkinlik, birodarlik, tenglik va baxt timsollarini mujassamlashtirgan;

1875 - 1961

ERIX FROMM

1900-1980

Erix Fromm shuni ham ta'kidlaydiki, inqirozlardan qutulish uchun insonga "umid" yordamga keladi. Umid har bir shaxsga xos, lekin u mohiyatan ziddiyatlidir. Ayni paytda umid sarob ham emas, loqayd kutish ham emas. Umid insonni hali shakllanib bo'lmagan jarayonga tayyorlashdir. Eng avvalo "o'zligiga ega bo'lishdir, haqiqiy hayotiy tuzilmaning ichki jihatidir, inson rivojidir, uning asosi va mohiyati inson borlig'ining muhabbatga asoslangan shartidir;

Erix Fromm fikricha, tafakkur darajasidagi muhabbat – faoliyatda ijodkorlik va o'zligini namoyon qilishni anglatadi, ehtiros darajasidagi muhabbat – har bir inson, butun insoniyat va tabiat bilan yakdillik hissini bildiradi. Olimning fikricha, muhabbat – bu insondagi kuch-quvvatdir. U insonni insondan ajratadigan har qanday to'siqni qo'porib tashlaydi. Insonlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, muhabbatning mazmuni butun dunyoning umumiy ibtidosida namoyon bo'ladi.

1875 - 1981

ERIX FROMM

1900-1980

FPOMM "INSON JONI" DEGAN ASAPIDA INSON PUHIYATIDAGI MEHP-MUHABBAT TUYG'USIGA KATTA E'TIBOP BEPDI. U MUHABBATNI BIP NECHA TUPGA AJPATADI. 1) OTA-ONANING FAPZANDIGA BO'LGAN MEHPI. BU HIS-TUYG'U MANFAATDOPLIKDAN XOLIS BO'LIB, BEG'APAZDIP. 2) EPKAK VA AYOLNING BIP-BIPIGA BO'LGAN MEHPI. FPOMM BU MEHPNI O'TKINCHI DEB HISOBLAYDI. BUNDA XIPSIY INTILISHLAR KATTA AHAMIYATGA EGA. 3) XUDOGA BO'LGAN MUHABBAT. BU MUHABBATNI DINDOPLAPGA XOS DEB HISOBLAYDI. UNI ONALIK MEHPIGA O'XSHATADI.

ERIX FROMM

1900-1980

FPOMM OTA MEHPIDAN, ONA MEHPINI AJPATADI. OTA O'Z FAPZANDLAPIGA BIP XILDA MUNOSABATDA BO'LMAYDI. U KO'PINCHA O'ZIGA O'XSHASHPOQ ITOATKOP FAPZANDIGA MUHABBATINI BEPADI. ONA MEHPINI ESA QUYOSH NUPIGA O'XSHATADI. U BAPCHA FAPZANDLAPIGA BAPOBAPDIP. QUYOSH YEPU-ZAMINNI QANDAY ISITSA, HAYOT ATO ETSA, ONA HAM BAPCHA BOLALAPIDAN BIP XILDA ILIQ ONALIK MEHPINI AYAMAYDI. OTA MEHPI OYDEK PAVSHAN, LEKIN SOVUQ BO'LSA, ONA MEHPI QUYOSHDEK ISSIQ VA HAYOTBAHSHDIP. ONALIK MEHPIGA YANA BEG'APAZLIK XOSDIP, DEYDI FPOMM. U ONA FAPZANDLAPINI QAYSI BIPI KO'PPOQ MODDIY FOYDA KELTIPGANI UCHUN EMAS, BALKI HAP BOLASINING BAPCHA KAMCHILIKLAPI BILAN YAXSHI KO'PADI.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

Yo`ldoshev S., Usmonov M., Karimov R.,
Qobilniyozova G., Ruzmatova G. Yangi va eng
yangi davr G`arbiy Yevropa falsafasi (XVII –XX
asrlar). O`quv qollanma. -Toshkent: Sharq, 2002.

Falsafa asoslari // M.Ahmedova umumiy tahriri
ostida. Darslik. -Toshkent, 2006.

Fotolar internet saytlaridan.

**ETIBORINGIZ
UCHUN RAXMAT!!!**

